



## SHONLI TARIXGA EGA BO'LGAN BERDAQ TEATRI

**Temirova Sarbina-Bonu**

**Mirsoliyeva Durdona**

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutu*

*Farg'ona mintaqaviy filiali*

*Qo'g'irchoq teatr aktyorligi*

*4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *O'zbek san'ati, O'zbek teatri azal-azaldan o'zining boy va buyuk o'tmishi bilan dunyoda maqtana oladigan darajada turadi. Aynan san'atimizning teatr sohasida gap ketganda, teatrımız tarixining buyuk namoyondalari va buyuk should tarixga ega bo'lgan teatrlarimiz ko'z oldimizda gavdalanadi va yodimizga tushadi. Quyida aynan shu buyuk should va until mas tarixga va shaxslarga ega bo'lgan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik teatri tarixi haqida so'z yuritiladi. Uning tashkil etilishi va uni shonli tarixidagi buyuk shaxslar va spektakllari haqida gap boradi.*

**Kalit so'zlar:** qadimiy, shaxs, teatr, truppa, pedagogik, maxsus, drama, tarixiy, milliy, pardasi, tantanali, asosiy, piesa, spektakl, rejissor, aktyor, asar, xalq, davlat, akademik, bo'lajak.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri — O'zbekistondagi eng qadimiy teatrlardan biri, 1926-yilda tashkil etilgan va Nukus shahrida joylashgan.

Qoraqalpog'iston viloyati Ijroiya qo'mitasining 1926 yil 11 apreldagi „Qoraqalpoq milliy drama truppasini tashkil etish to'g'risida“gi maxsus qarori bilan „Tong nuri“ Qoraqalpoq milliy teatr truppasi tashkil qilinadi va uning badiiy rahbarligiga To'rtko'l shahridagi pedagogik texnikum o'qituvchisi Z. F. Qosimov tayinlanadi.

1926 yil 8 noyabrda Qosim Avezovning „Tilak yo'lida“ nomli kartinali tarixiy dramasi bilan „Tong nuri“ truppasining birinchi pardasi tantanali ochildi. Qoraqalpoq milliy teatri tarixining solnomasi aynan shu kundan boshlandi.

1927 yili Z.Qosimovning asosiy ishiga qaytishi sababli truppaga Abdiraman Otepov rahbarlik qila boshladi. Abdiraman Utеповning „O'z tengini topgan qiz“ piesasi asosidagi spektakl edi. U yillar davomida sahnadan tushmadi. Muallifning o'zi spektaklga rejissorlik qildi va asar sahnaviy talqinining xalqchilligi va tomoshaviyliligini ta'minlashda xalq qo'shiqlaridan o'z o'rnida, unumli foydalandi.

1930-yili truppa Qoraqalpoq davlat teatri bo'lib tashkil qilindi.

Qoraqalpog'iston hukumati Moskvadagi Davlat teatr san'ati instituti qoshida „Qoraqalpoq milliy studiyasi“ni tashkil etishga qaror qildi. 1934 yil bo'lajak studiyachilarini tanlash uchun Moskvadan maxsus komissiya keldi. Komissiya a'zolari badiiy havaskorlik jamolari spektakllari va kontsertlarini tomosha qildi, talabgorlarni daslabki imtihondan o'tkazib, 33 nafar qobilyatlilar tanlab oldi. 1939-yilning iyul oyida Moskva studiyasi tinglovchilari o'z yurtiga qaytib keldilar teatr tarkibiga qo'shildi.



1939-yildan teatr Konstantin Stanislavskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali drama va komediya teatri deb nomlandi.

1989-yildan teatr Qoraqalpoq davlat musiqali teatri deb nomlandi.

1991-yildan teatrga xalqimizning buyuk badiiy so'z ustasi, mumtoz adabiyotimiz darg'alaridan biri Berdaq nomi berildi.

2017-yil fevral oyida teatrga „akademik teatr“ maqomi berilib, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqa teatri deb yuritila boshladi.

Teatr ko'p janrli hisoblanadi va unda opera, balet, musiqiy drama va dramatik asarlar sahnalashtiriladi.

Teatrning ko'p yillar davomida erishgan yutuqlari, ayniqsa yoshlarni Vatanga sadoqat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, insonlar qalbiga yaxshilik nurlarini singdirishni o'zining ezgu minnati deb bilib, fidokorona xizmat ko'rsatib kelayotganini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2017-yil 23-fevraldag'i maxsus buyrug'i bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik teatr maqomi berildi.

Teatr saxnasida dunyo va milliy adabiyotimizdi eng yaxshi dramatik asarlar saxnalashtirildi. Ularning orasida komediya, tragediya, balet va opera janridagi asarlar bor.

1930-yillari A.Otepovning „Odekalon“, „Ana halos“, „Ikki boshli suv qaboq“, „Bo'yaqchi vakil“, „Seytmurat-dangasa“, „Gumon“, „Zindon“, „900 gramm“, „Shaleke boy“, „Ochlik zori“, „Marqaboy botir“, „Oltmish metr, yetmish metr“, „Meyerxol“ singari pyesalardan, A.Begimovning „Bu kim“ dramasi va J.Aymurzayevning „Byurokratlar“ komedyasini muvaffaqiyatli sahnalashtirdi.

1941-1945 yillari urush davri bo'lishiga qaramasdan teatr jamoasi o'z ijodini davom ettirdi. Ayimxon Shamuratova va Yuldash Sharipovlar boshchiligidagi 2 ta gurux tuzib, Qoraqalpog'istonning olis ovullarida gastrol safarlarida bo'lib, mablag'ni frontga yordam sifatida jo'natdilar. Bu davrda teatr repertuarida xalqning ornonusini, g'ururini ko'taradigan vatanparvarlik mavzusidagi N.Davqarayevning – „Alpomish“, J.Aymurzayevning – „Leytenant Elmuratov“, K.Simonovning – „Rus odamlari“, S.Abdullaning – „Qurban Umarov“ pyesalarini sahnalashtirib xalqimizning jangovorlik ruhini jonlantirdi

1957-yili Toshkentda Qoraqalpoq madaniyati va adabiyoti kunlarining o'tishi munosabati bilan teatr „G'arib oshiq“, „Suymaganga suykalma“, „Ravshan“, „Kambag'allik ayb emas“ klassik va zamanoviy mavzudagi spektakllarni poytaxt tamoshabinlariga havola qildilar.

1960-1970-yillari jahon dramaturglari durdonalarini va qo'shni xalqlar klassik asarlari – V.Shekspirning „Otello“, Molerning „Tartyuf“, Goldoning „Ikki boyga bir malay“, Gogolning „Revizor“, Ch. Aytmatovning „Ona yer-onा“, M.Karimning „Oy utilgan tunda“, A.Abdullinning „13-reys“, A.Qahhorning „Tobuttan tovush“, G.Gorinining „Ot uchsin“, S.Balgabayevning „Bizlar ham oshiq bo'lgandik“,



T.Minullinning „Azroylni aldagan odam“, Iosalinning „Aravang og'darilmasin“, Sagarellinning „Xanuma“ kabi asarlarni saxnalashtiriladi.

Mustaqillik g'oyalari bilan sug'arilgan yangi zamon qahramoni, tarixiy shaxslarimiz siyoshi, mehr-muruvvat mavzusi, Vatanga bo'lgan muhabbat va boshqa shu kabi mavzularda asarlar o'rinni olgan. Shunday asarlardan S.Xo'janiyozovning „Adolatga hiyonat“, „Suymaganga suykalma“, K.Rahmanovning „Kelin“, „O'lim jazosi“, K.Matmuratovning „Kechikkan muhabbat“, O.Abdurahmanovning „O'jarlar“, A.Qahhorning „Tobuttan tovush“, O'.Hoshimovning „Uylanmasam o'laman“, N.Jakiyevning „Ota taqdiri“, S.Balg'abayevning „Eng suluv kelinchak“, A.Uteniyazovning „Qizng or-nomusi“, K.Bayseytov va K.Shangitbayevlarning „Uch buydoq“, P.Aytmuratovning „Intilganga tole yor“, P.Uteniyazov va S.Uzaqbayevlarning „Farzandim jigar-bandim“, H.Muhammadning „Hunar o'rgangan bola“, Q.Narqabilning „Nur soyada qolmaydi“ va boshqa asarlar teatr repertuaridan o'rinni olgan.

Teatrning o'zining klassikaga aylangan asarlari mavjud bo'lib, ular bir necha marotaba qayta-qayta saxnalashtirilmoqda. Ulardan J.Aymurzayevning „Berdaq“ musiqali dramasi (1951, 1958, 1976 yillari), N.Davkarayevning „Alpomish“ musiqali dramasi (1942, 1961, 2007 yillari), A.Begimov, T.Allanazarovlarning „G'arib ochiq“ musiqali dramasi (1956, 1972, 1992 yillari), S.Xujaniyozovning „Suymaganga suykanma“ musiqali komedyasi (1945, 1955, 1972, 1978, 2002, 2008 yillari), N.Muxammeddinovning „Ajiniyoz“ operalarini (1987, 1994, 2014 yillari) aytish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)
4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usanova)

### FOYDALANILGAN WEB-SAYTLAR:

1. Tafakkur.net
2. Ziyoruz.com sayti
3. Qomus.info sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Shosh.uz sayti
6. Vikipedia